

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

HAVO KONDITSIONERI

Ushbu jihozni ishlatishdan avval qo'llanmani diqqat bilan o'qing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

Ushbu qurilma elektr va elektronika jihozlarida ma'lum xavfli moddalardan foydalanish bo'yicha cheklavlarni bog'liq texnik me'yorlar talablariga javob beradi.

MUNDARIJA

A. Xavfsizlik ehtiyot choralari	3
B. Elektr xavfsizligi	6
Adapterdan vaqtinchalik foydalanish	6
Uzaytirish shnuridan vaqtinchalik foydalanish	6
Qo'llanmada foydalanilgan belgilar	6
C. Mahsulot haqida ma'lumot	7
Ichki bloklar	7
Ish holatini ko'rsatuvchi chiroqlari	8
Tashqi blok	8
D. Ishlatishga oid yo'riqlar	9
Batareyalarni joylashtirish	9
Simsiz masofa pultiga xizmat ko'rsatish	9
Ishlatish usuli	9
Simsiz masofa pulti	10
Ish rejimi	11
Salomatlik uchun foydali namsizlantirish funksiyasi	12
Avtomatik ishlash funksiyasi (faqat sovutuvchi modellarda)	12
Rejimni avtomatik o'zgartirish funksiyasi (Issiqlik nasosi bor modellarda)	12
Tezkor sovutish/isitish funksiyasi	13
NEO PLAZMA tozalash funksiyasi (ixtiyoriy)	13
Avtomatik tozalash funksiyasi (ixtiyoriy)	13
Energiya tejovchi sovutish rejimi (ixtiyoriy)	14
Majburiy ishlatish	14
Uyqu rejimi	15
Joriy vaqtni o'rnatish	15
Taymerni sozlash	15
Vertikal / gorizontal havo oqimi yo'nalishini boshqarish (ixtiyoriy)	16
Havoni sirkulyatsiyalash rejimi	16
Avtomatik qayta ishg'a tushirish funksiyasi	16
E. Qarash va xizmat ko'rsatish	17
Ichki blok	17
Rasm va fotosuratni almashtirish	20
Tashqi blok	21
Ishlatishga oid maslahatlar!	21
O'z-o'zini diagnostika qilish funksiyasi	21
Nosozliklarni bartaraf qilish bo'yicha maslahatlar! Vaqtiniz va pulingizni tejab qoling!	22
Quyidagi holatlarda darhol xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling	22



QAYDLARINGIZ UCHUN

Bu yerga modelingiz va seriya raqamingizni yozib qo'ying:

Model # _____

Seriya raqami # _____

Siz ularni qurilmaning yon tomonidagi yoriqdan topishingiz mumkin.

Diler nomi _____

Xarid sanasi _____

■ Ushbu sahifadagi chekingizni xarid qilish sanangizni tasdiqlash yoki kafolat maqsadlari uchun saqlab qo'ying.



USHBU QO'LLANMANI O'QIB CHIQING

Unda siz havo konditsioneridan to'g'ri foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'pgina foydali maslahatlar topishingiz mumkin. Siz tomoningizdan qilinadigan ozgina ehtiyotkorlik choralari havo konditsionerining xizmat ko'rsatish muddati davomida ko'p vaqtiniz va mablag'laringizni tejab qolishi mumkin.

Muammolarni bartaraf etish bo'limida ko'pincha yuzaga keladigan muammolarga javob topishingiz mumkin. Agar siz avval Nosozliklarni bartaraf qilish bo'limidagi maslahatlar jadvalini ko'rib chiqsangiz, xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilishning umuman hojati qolmasligi mumkin.



EHTIYOT CHORALARI

- Ushbu jihozni ta'mirlash yoki unga texnik xizmat ko'rsatish uchun vakolatli xizmat ko'rsatuvchi texnika murojaat qiling.
- Ushbu jihozni o'rnatish uchun o'rnatuvchi mutaxassisga murojaat qiling.
- Havo konditsionerini yosh bolalar yoki nogiron shaxslar nazoratsiz holda ishlatishi ko'zda tutilmaydi.
- Yosh bolalarning havo konditsioneri bilan o'ynamasliklariga ishonch hosil qilish uchun ular nazorat ostida bo'lishlari kerak.
- Elektr tarmog'iga ulash shnurini almashtirish zarur bo'lgan hollarda, bu ish vakolatli texnik tomonidan faqat asl ehtiyot qismlardan foydalangan holda amalga oshirishi kerak.



Ehtiyot choralari

Foydalanuvchi yoki boshqa odamlarga tan jarohati yetishi, moddiy zarar yetishini oldini olish uchun quyidagi yo'riqlarga rioya qilinishi zarur.

■ Qo'llanmaga amal qilmasdan noto'g'ri foydalanish ziyon va zarar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yo'riqlarning jiddiylik darajasi quyidagi belgilar bilan tasniflanadi.



OGOHLANTIRISH

Bu belgi o'lim xavfi yoki jiddiy jarohat yetishi mumkinligini bildiradi.



DIQQAT

Mazkur belgi faqatgina moddiy zarar yoki tan jarohati yuz berishi mumkinligini bildiradi.

■ Bu yo'riqnomada qo'llanilgan belgilarning ma'nosi quyida ko'rsatilgan kabidir.



Bularni albatta qilmang.



Ko'rsatmalarga albatta amal qiling.



OGOHLANTIRISH

Doimo yerga ulangan rozetka va vilkadan foydalaning.

- Elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Elektr ishlari uchun diler, sotuvchi, malakali elektrik yoki vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Mahsulotni o'zingizcha qismlarga ajratmang yoki ta'mirlamang.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Mos bo'lgan zanjir uzgich yoki saqlagichdan foydalaning.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Mahsulotni nuqsonli o'rnatish tayanchiga o'rnatmang. O'rnatish sohasining vaqt o'tishi bilan buzilmasligiga ishonch hosil qiling.

- Bu mahsulotning yiqilishiga olib kelishi mumkin.

Tashqi blokda oshiruvchi kondensator elektr qismlarni yuqori kuchlanishi elektr toki bilan ta'minlaydi. Ta'mirlash ishlarini bajarishdan avval kondensatorning to'liq zaryadsizlanganligiga ishonch hosil qiling.

- Zaryadlangan kondensator elektr tokining urishiga olib kelishi mumkin.

Nuqsonli yoki mos bo'lmagan zanjir uzgichdan foydalanmang. Mos bo'lgan zanjir uzgich va saqlagichdan foydalaning.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Mahsulotni doimo simli diagrammada ko'rsatilgani kabi yerga ulang. Yerga ulash simini gaz, suv trubalari, yashin qaytargich yoki telefon simlariga ulamang.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Elektr kabelini o'zgartirmang yoki uzaytirmang. Agar elektr tarmog'iga ulash kabeli yoki shnuri tinalgan yoki po'sti archilgan bo'lsa, u yangisi bilan almashtirilishi kerak.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Tashqi blokni harakatlanuvchi asosga yoki yiqilishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatmang.

- Tashqi blokning yiqilishi shikastlanish, shaxsning jarohatlanishi va hattoki o'limiga ham olib kelish mumkin.

Qurilmani o'rnatganda mahsulot bilan birga berilgan o'rnatish to'plamidan foydalaning.

- Aks holda qurilma yiqilishi va jiddiy jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Ko'p tirqishli rozetkadan foydalanmang. Bu qurilmadan doimo shu qurilma uchun mo'ljallangan zanjir va zanjir uzgichda foydalaning.

- Aks holda elektr tokining urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Boshqaruv qutisi paneli va qopqog'ini mahkam o'rnatning.

- Chang, suv kabilar tufayli yong'in chiqishi yoki elektr urish xavfi mavjud.

O'rnatish, bo'shatib olish yoki qayta o'rnatish uchun doimo diler yoki vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

- Yong'in chiqishi, elektr tokining urishi, portlash yoki shikastlanish xavfi mavjud.

Mahsulot suvda ho'llangan (suvda qolgan yoki suvga cho'kkan) hollarda undan yana foydalanishdan avval ta'mirlash uchun vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Faqat svc qismlari ro'yxatida keltirilgan qismlardan foydalaning. Hech qachon jihozni o'zgartirishga urinmang.

- Mos bo'lmagan qismlardan foydalanish elektr tokining urishi, ortiqcha issiqlik chiqishi yoki yong'inga olib kelishi mumkin.

Ichki/tashqi bloklarning simli ulanishlari mahkam qotirilishi va kabelni ulash terminalaridan tortuvchi kuch bo'lmisligi uchun kabel to'g'ri o'tkazilgan bo'lishi lozim.

- Noto'g'ri yoki bo'sh ulanishlar issiqlik hosil bo'lishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Foydalaniladigan sovutish vositasini tekshiring. Mahsulotdagi yorliqni o'qib chiqing.

- Foydalanilgan noto'g'ri sovutish vositasi qurilmaning normal ishlashiga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Elektr tarmog'iga ulash shnuri yaqiniga isitgich yoki boshqa isituvchi jihozlarni joylashtirmang.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Mahsulotdan germetik yopilgan joylarda uzoq muddat foydalanmang. Muntazam ravishda shamollatib boring.

- Kislorod yetishmasligi yuz berishi va natijada sog'lig'ingizga zarar yetkazishi mumkin.

Undan pech yoki isitish elementi bilan birga foydalanilgan hollarda mahsulot o'rnatilgan xonani vaqti-vaqti bilan shamollatib turing.

- Kislorod yetishmasligi yuz berishi va natijada sog'lig'ingizga zarar yetkazishi mumkin.

Hech kimning, ayniqsa bolalarning tashqi blok ustiga chiqmasliklari yoki yiqilmasliklariga ehtiyot bo'ling.

- Bu shaxsiy jarohatlanish va mahsulotning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Qurilmani YOQISH/O'CHIRISH uchun vilkani rozetkaga tiqmang yoki rozetkadan sug'urmang.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Qadoqlash materiallarini xavfsiz tarzda chiqitga chiqaring. O'rnatgandan keyin burama mixlar, mixlar, batareyalar, singan narsalar kabilarni olib tashlang va keyin plastik qadoqlash materialarini sug'urib oling va chiqarib tashlang.

- Bolalar ular bilan o'ynashlari va jarohatlanishlari mumkin.

Shikastlangan elektr tarmog'iga ulash shnuri, vilka yoki bo'sh rozetkadan foydalanmang.

- Aks holda bu yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishiga olib kelishi mumkin.

Elektr qismlarining ichiga suv kirishiga yo'l qo'ymang. Qurilmani suv manbalaridan uzoqroqqa o'rnatmang.

- Yong'in chiqishi, qurilmaning ishdan chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Ishlatish vaqtida mahsulotning old tarafidagi panjarani ochmang. (Agar qurilma elektrostatik filtr bilan jihozlangan bo'lsa, filtrga tegmang.)

- Jismoniy jarohatlanish, elektr toki urishi yoki mahsulotning buzilishi xavfi mavjud.

Mahsulotni tozalash yoki ta'mirlash vaqtida qurilmani o'chiring va vilkani rozetkadan uzing.

- Elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Ishlatish vaqtida elektr tarmog'iga ulash kabelining tortilib ketmasligi yoki shikastlanmasligiga ishonch hosil qiling.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Yonuvchan gaz chiqqan hollarda mahsulotni yoqishdan avval gazni o'chiring va shamollatish uchun oynalarni oching.

- Telefondan foydalanmang yoki o'chirg'ichlarni yoqmag yoki o'chirmang. Portlash yoki yong'in chiqish xavfi mavjud.

Elektr tarmog'iga ulash vilkasining kir emasligi, bo'shab qolmaganligi yoki sinmaganligiga ishonch hosil qiling va keyin vilkani rozetkaga to'liq kiriting.

- Ifloslangan, bo'shab qolgan yoki singan vilka elektr tokining urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Mahsulotga nam qo'llaringiz bilan tegmang, ishlatmang yoki ta'mirlamang. Rozetkadan uzganda vilkadan ushlab torting.

- Elektr tokining urishi yoki yong'in chiqish xavfi mavjud.

Mahsulot yaqinida yonuvchan gaz yoki portlovchi moddalarni saqlamang, ulardan foydalanmang va hattoki kirishiga yo'l qo'ymang.

- Yong'in chiqish xavfi mavjud.

Agar mahsulotdan g'alati tovush, hid yoki tutun chiqayotgan bo'lsa, darhol zanjir uzgichni o'chiring yoki elektr tarmog'iga ulash kabelini uzing.

- Elektr tokining urishi yoki yong'in chiqish xavfi mavjud.

Mahsulotdan uzoq muddat foydalanilmaganda elektr tarmog'iga ulash kabelini uzing yoki zanjir uzgichni o'chirib qo'ying.

- Mahsulotning shikastlanishi, ishdan chiqishi yoki noto'g'ri ishlashi xavfi mavjud.

Elektr tarmog'iga ulash kabelining ustiga HECH NARSA qo'ymang.

- Yong'in chiqishi yoki elektr tokining urishi xavfi mavjud.

Mahsulot ichki qismlarini tozalash uchun vakolatli xizmat ko'rsatish markazi yoki dilerga murojaat qiling. Qurilmaning korroziyalanishi yoki shikastlanishiga olib keluvchi dag'al tozalash vositalaridan foydalanmang.

- Dag'al tozalash vositalari yana mahsulotning ishdan chiqishi, yong'in yoki elektr tokining urishiga olib kelishi mumkin.

⚠️ DIQQAT

Mahsulotni ikki yoki undan ko'proq kishi ko'tarishi yoki yuklashi lozim.

- Shaxsiy jarohatlanishning oldini oling.

Mahsulotni o'rnatishda ham tekis o'rnatmang.

- Tebranishi yoki shovqin chiqishini oldini olish uchun.

Mahsulotni u to'g'ridan-to'g'ri dengiz shamoli (tuzli sepm) ta'siriga uchraydigan joylarga o'rnatmang.

- Bu mahsulotning korroziyalanishiga olib kelishi mumkin.

Mahsulotni shovqin yoki tashqi blokdan chiqqan issiq havo qo'shnilariga zarar yetkazishi yoki ularni bezovta qilishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatmang.

- Bu qo'shnilaringiz bilan bog'liq muammolarga va natijadan kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Kondensatsiyalangan suvning to'g'ri chiqarib yuborilishini kafolatlash uchun suv chiqarish shlangini o'rnatmang.

- Yomon ulanish suv chiqishiga olib kelishi mumkin

Mahsulotni o'rnatgandan yoki ta'mirlagandan keyin doimo gaz (sovutish vositasi) chiqmayotganligini tekshiring.

- Sovutish vositasining kamligi mahsulotning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Mahsulotdan taomlar, san'at asarlari kabilarini saqlash kabi maxsus maqsadlarda foydalanmang. U maishiy havo konditsioneri, aniq sovutish tizimi emas.

- Muklarning shikastlanishi yoki yo'qotilishi xavfi mavjud.

Havo filtrini olishda mahsulotning metall qismlariga tegmang.

- Shaxsiy jarohatlanish xavfi mavjud.

Mahsulot ishlayotgan vaqtda havo kiritish yoki chiqarish tirqishlariga qo'llaringiz yoki boshqa buyumlarni tiqmang.

- Shaxsiy jarohatlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan o'tkir va harakatlanuvchi qismlar mavjud.

Blokni olish yoki bo'shatish vaqtida uni qiyshaytirmang.

- Ichidagi kondensatsiyalangan suv to'kilishi mumkin.

Blokni bo'shatish, sovutuvchi moy va qismlarni olib tashlash mahalliy va milliy standartlarga muvofiq bajarilishi lozim.

Batareyadan chiqqan suyuqlik og'izga kirs, tishingizni yuvib, shifokorga murojaat qiling. Batareyadan suyuqlik sizib chiqqan bo'lsa, masofa pultidan foydalanmang.

- Batareyalardagi kimyoviy moddalar kuyish yoki boshqa sog'lik uchun xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Tana terisi yoki bolalar yoki o'simliklarni konditsionerdan chiqayotgan salqin yoki issiq havo oqimi ta'siri ostida qoldirmang

- Bu sog'lig'ingizga zarar yetkazishi mumkin.

Havo oqimi kirishi yoki chiqishi tirqishlarini to'sib qo'ymang.

- Bu mahsulotning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Mahsulot ustiga chiqmang yoki hech narsa qo'ymang. (tashqi bloklar)

- Shaxsiy jarohatlanish va mahsulotning ishdan chiqishi xavfi mavjud.

Mahsulotni qadoqdan olish va o'rnatishda ehtiyot bo'ling.

- O'tkir qirralar jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Tizimda foydalaniladigan sovutish vositasidan boshqa havo yoki gazni aralashtirmang.

- Agar sovutish tizimiga havo kirs, ortiqcha yuqori bosim hosil bo'lishi va bu jihatni shikastlashi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Masofadan boshqarish pultidagi batareyalarni xuddi shu turdagi yangilari bilan almashtiring. Yangi va eski hamda turli turdagi batareyalarni aralashtirmang.

- Yong'in chiqishi yoki mahsulotning ishdan chiqish xavfi mavjud.

Batareyadan chiqqan suyuqlik og'izga kirs, tishingizni yuvib, shifokorga murojaat qiling. Batareyadan suyuqlik sizib chiqqan bo'lsa, masofa pultidan foydalanmang.

- Batareyalardagi kimyoviy moddalar kuyish yoki boshqa sog'lik uchun xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Konditsionerdan chiqadigan suvni ichmang.

- Bu sanitariyaga muvofiq emas va sog'liq bilan bog'liq jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Tozalash uchun yumshoq lattadan foydalaning. Dag'al yuvish vositalari, eritmalar yoki suv sepuvchilardan foydalanmang.

- Bu yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki mahsulot plastik qismlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Tozalagandan keyin filtrni doimo mahkam joylashtiring. Filtrni har ikki haftada yoki zarur bo'lgan hollarda bundan tezroq tozalab turing.

- Ifloslangan filtr samaradorlikni pasaytiradi.

Agar ta'mirlash vaqtida sovutuvchi gaz oqib chiqsa, oqib chiqayotgan sovutuvchi gazga tegmang.

- Sovutuvchi gaz sovuq urishiga (sovuqdan kuyishga) olib kelishi mumkin

Agar o'rnatish vaqtida sovutuvchi gaz chiqsa, atrofini darhol shamollating.

- Aks holda bu sizning salomatligingizga xavfli bo'lishi mumkin.

Batareyalarni zaryadlamang yoki qismlarga ajratmang. Eski batareyalarni olovga tashlamang.

- Ular yonib ketishi yoki portlashi mumkin.

Havo konditsionerini yuqori namlikda va eshik yoki deraza ochiq holatda bo'lganda uzoq vaqt ishlashiga yo'l qo'ymang.

- Namlik kondensatsiyalanishi va uy mebellarini ho'l qilishi yoki ularga zarar yetkazishi mumkin.

Tozalash, xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash vaqtida mustahkam stol yoki narvondan foydalaning.

- Ehtiyot bo'ling va tan jarohati olishdan saqlaning.

Ishlatish diapazonlari

Isituvchi va sovutuvchi modellar uchun isitish uchun ishlatish diapazoni quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Isitish uchun ishlatish diapazoni	Tashqi blok harorati
	0 ~ 24 °C

- * Tashqi blok harorati 0 °C dan pasayganda ishlatish sharoitlariga bog'liq ravishda isitish qobiliyati biroz pasayishi mumkin.

Elektr xavfsizligi

⚠ OGOHLANTIRISH

- Bu qurilma yerga to'g'ri ulangan bo'linishi kerak. Elektr tokining urishi xavfini kamaytirish uchun siz vilkani doimo yerga ulangan rozetkaga ulashingiz kerak.
- Yerga ulash tishchasini qirqmang yoki vilkadan olib tashlamang.
- Adapterning yerga ulash terminalini devor rozetkasi qopqog'i burama mixiga biriktirish qurilmani yerlashtirmaydi, qopqoq burama mixi metall bo'lgan va izolyatsiyaga ega bo'lgan hamda devor rozetkasi uydagi zanjir orqali yerga ulangan hollar bundan mustasno.
- Agar siz havo konditsionerining yerga to'g'ri ulanganligiga shubha qilsangiz, devordagi rozetka va elektr zanjirini malakali elektrikka tekshirtiring.

Adapterdan vaqtinchalik foydalanish

Xavfsizlikka nisbatan xatarlar bo'lganligi uchun biz adapterdan foydalanishni maslahat bermaymiz. Vaqtinchalik ulanishlar uchun faqat ko'pchilik mahalliy xo'jalik mollari do'konlarida mavjud bo'lgan haqiqiy adapterdan foydalaning. To'g'ri qutblangan holda ulanishi uchun adapterdagi kattaroq slotning rozetkadagi katta slot bilan tenglashtirilganligiga ishonch hosil qiling.

Elektr tarmog'iga ulash shnurini adapterdan uzishda yerga ulash terminalini shikastlamaslik uchun har birini bittadan qo'l bilan ushlang. Elektr tarmog'iga ulash shnurini tez-tez uzib qo'ymang, chunki bu yerga ulash terminalining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Hech qachon qurilmadan singan adapter bilan foydalanmang.

Uzaytirma shnurdan vaqtinchalik foydalanish

Xavfli holatlar vujudga kelishi mumkinligi sababli uzaytirish simidan foydalanmaslikni qat'iy tavsiya etamiz. Vaqtinchalik foydalaniladigan vaziyatlarda, faqat CSA sertifikatiga ega va UL ro'yxatida bor bo'lgan, 3 simli, yerga tutashtirilgan 15 A, 125 V li uzaytirish simlaridan foydalaning.

⚠ OGOHLANTIRISH

Qurilma davlat elektr simlarini ulash me'yorlariga muvofiq o'rnatilishi kerak. Bu yuriqnoma mahsulot xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Qo'llanmada foydalanilgan belgilar



Ushbu belgi elektr toki urishi xavfidan ogohlantiradi.



Ushbu belgi konditsionerga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xavflardan ogohlantiradi.

ESLATMA

Bu belgi alohida izohlarni ko'rsatadi.


Mahsulot bilan tanishish

Quyida ichki va tashqi konditsioner bloklari bilan qisqacha tanishing. Siz xarid qilgan ichki blok turiga tegishli bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishing.

Ichki bloklar


Standart split tur

Display panel svetodiodli indikatorlari




Art Cool (tip 1)

Display panel svetodiodli indikatorlari




Art Cool (tip 2)

Display panel svetodiodli indikatorlari




Art Cool tipli enli

Display panel svetodiodli indikatorlari




Art Cool Deluxe(tip 1)

Display panel svetodiodli indikatorlari




Art Cool Deluxe(tip 2)

Display panel svetodiodli indikatorlari



Art Cool Deluxe(tip 3)

Display panel svetodiodli indikatorlari



Ish holatini ko'rsatuvchi chiroqlar



Yoq./o'ch.

: Tizim ishlayotganda, xatolik kodi va avtomatik qayta ishga tushirish o'rnatilganda, yonadi.



Uyqu rejimi

: Uyqu rejimi avtomatik ishlaganda, yonadi.



Energiya tejoychi
sovutish rejimi

: Energiya tejoychi sovutish rejimi ishlayotganda, yonadi.



PLAZMA Plazma

: Bu funksiya turli chiroqlardan iborat tizimi orqali o'zining dinamik rejimini ko'rsatadi.
(Har bir modelda ish holatini ko'rsatuvchi chiroq turlicha)



Taymer

: Taymer va avtomatik uyqu rejimi ishlaganda, yonadi.



Muzdan eritish rejimi

: Muzdan eritish rejimi vaqtida yoki *issiq ishga tushirish (faqat issiqlik nasosi mavjud modellarda) vaqtida yonadi.



OUT DOOR

Tashqi blok ish
holati chiroqi

: Tashqi blok ishlayotganda, yonadi (faqat sovutuvchi modellarda).



Quvvat Displayi


: Sozlama harorati va ish rejimini ko'rsatadi.

Ish rejimi	Sovutish, istilash, namsizlantirish rejimi	Avtomatik ishlash rejimi						Tezkor sovutish/istilash	Energiya tejoychi sovutish rejimi	Sinov ishlash	Avtomatik tozalash
		Standart	Juda issiq	Issiq	Qulay	Sovuq	Juda sovuq				
Displayda aks etadigan ko'rsatkich	Haroratni o'rnatish	A1	-2	-1	0	1	2	Po	Eo	Lo	Co

* **Issiq ishga tushirish:** Blokdan sovuq havo esishini oldini olish uchun istilash rejimida ichki blok ventilyatorini bir necha daqiqa to'xtatadi.

* **Muzdan eritish rejimida,** konditsioner o'z ish samaradorligini saqlash uchun issiqlik almashinuvi qurilmasi burama naychalarida hosil bo'lgan muzni yo'qotish uchun bir necha daqiqaga isitish jarayonini to'xtatadi.


Tashqi blok



Ishlatishga oid yo'riqlar

Batareyalarni qanday qo'yish kerak

1. Strelka ko'rsatgan yo'nalish tomon surgan holda batareya qop-qog'ini oching.
2. Yangi batareyalarni pultga joylashtiring, batareyalarning (+) va (-) tomonlari to'g'ri joylashtirilganligiga ishonch hosil qiling.
3. Batareya qopqog'ini qaytib o'z o'rniga surib o'rnatng.




ESLATMA

1. Doim ikkita bir xil turdagi batareyani ishlatng/almashtiring.
2. Agar tizimdan uzoq vaqt foydalanilmaydigan bo'lsa, batareyalar xizmat muddatini saqlash uchun ularni pultdan olib qo'ying.
3. Agar masofa pulti displey ekrani xiralasha boshlasa, har ikki batareyani almashtiring.
4. 2 dona AAA (1,5 volt) tipli batareyalardan foydalaning.

Simsiz masofa pultining ishga shayligini ta'minlash

1. Xavfsiz va masofa pultini olish ong'ay bo'lgan mos joyni tanlang.
2. Berilgan burama mixlar yordamida masofa pulti ushlagichini devorga yoki boshqa joyga yaxshilab qotiring.
3. Masofa pultini ushlagich ichiga qo'ying.




ESLATMA

1. Masofa pultini aslo bevosita quyosh nuri ta'siri ostida qoldirmang.
2. Signal aloqasi ko'ngildagidek ta'minlanishi uchun signal uzatgich va signal qabul qiluvchi datchik doim toza bo'lishi lozim. Ularni tozalash uchun yumshoq matodan foydalaning.
3. Agar masofa pulti orqali boshqa uy jihozlari ham ishlab ketsa, masofa pulti joyini o'zgartiring yoki texnik xizmat ko'rsatuvchi ustaga murojaat qiling.


Ishlatish usuli

1. Signal qabul qiluvchi datchik blok ichida joylashgan.
2. Konditsionerni ishlatish uchun masofa pultini blokka to'g'rilang. Ular o'rtasida hech qanday to'siq bo'lmasligi lozim.




Simsiz Boshqaruv Pulti

Boshqaruv tugmalari haqida quyida tanishasiz.



Ish rejimi



1. YOQISH/O'CHIRISH TUGMASI

Konditsionerni yoqish/o'chirishda foydalaniladi.

2. ISH REJIMINI TANLASH TUGMASI

Ish rejimini tanlashda foydalaniladi.

3. XONA HARORATINI SOZLASH TUGMALARI

Xona haroratini sozlashda foydalaniladi.

4. ICHKI VENTILYATOR TEZLIGINI TANLASH TUGMASI

Ventilyatorning past, o'rta, yuqori yoki XAOS kabi to'rtta tezlik rejimlaridan birini tanlashda foydalaniladi.

5. TEZKOR SOVUTISH TUGMASI

Tezkor sovutish rejimini ishga tushirish yoki to'xtatishda foydalaniladi. (Bunda ventilyator sovutish rejimida juda yuqori tezlikda ishlaydi)

6. XAOS CHAYQALISH TUGMASI

Jalyuza harakatini to'xtatish yoki ishga tushirish va kerakli yuqoriga/pastga yo'nalgan havo oqimi yo'nalishini tanlash uchun ishlatiladi.

7. TAYMER VA TAYMERNI SOZLASH TUGMASI

Ishga tushish va to'xtash vaqtini belgilashda foydalaniladi.

8. VAQTNI SOZLASH TUGMALARI

Vaqttni sozlashda foydalaniladi.

9. TAYMERNI O'RNATISH / BEKOR QILISH TUGMASI

Taymer vaqtini o'rnatish va bekor qilishda foydalaniladi.

10. AVTOMATIK UYQU REJIMI TUGMASI

Avtomatik uyqu rejimini o'rnatishda foydalaniladi.

11. XONA HARORATINI TEKSHIRISH TUGMASI

Xona haroratini tekshirishda foydalaniladi.

12. ASLIGA QAYTARISH TIGMASI

Asl holatga qaytarishda foydalaniladi.

13. AVTOMATIK TOZALASH TUGMASI

Avtomatik tozalash rejimini ishga tushirishda foydalaniladi.

14. PLAZMA TUGMASI

Plazmalı tozalash funksiyasini ishga tushirish yoki to'xtatishda foydalaniladi.

15. BARCHASINI O'CHIRISH TUGMASI

Barcha taymer sozlamalarini bekor qilishda foydalaniladi.

16. ENERGIYA TEJOVCHI SOVUTISH REJIMI TUGMASI (IXTIYORIY)

Energiyani tejash uchun foydalaniladi.


17. LCD EKRAN YORQINLIGI TUGMASI (IXTIYORIY)

LCD yorqinligini sozlashda foydalaniladi.

18. GORIZONTAL HAVO OQIMINI BOSHQARISH TUGMASI (IXTIYORIY)

Kerakli gorizontaal havo oqimi yo'nalishiga sozlashda foydalaniladi.

Ish rejimi




- 1** Konditsionerni yoqish uchun yoqish/o'chirish tugmasini bosing. Shunda, qurilma tovushli signal bilan javob qaytaradi.




- 2** Masofa pulti eshikchasini ochib, ish rejimini tanlash tugmasini bosing. Har gal bu tugma bosilganda, ish rejimi strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishda o'zgaradi.



- 3** Xona haroratini o'rnatish tugmalari yordamida sovutish yoki isitish rejimlarini kerakli xona haroratini o'rnatish. Sovutish rejimida haroratni 18°C - 30°C, isitish rejimida esa 16°C - 30°C diapazon doirasida sozlash mumkin.




- 4** Masofa pulti yordamida ventilyator aylanishi tezligini o'rnatish. ICHKI VENTILYATOR TEZLIGINI TANLASH TUGMASI YORDAMIDA ventilyatorning past, o'rtacha, yuqori yoki XAOS kabi to'rtta tezlik rejimlaridan birini tanlang. Har gal bu tugma bosilganda, ventilyatorning aylanish tezligi rejimi o'zgaradi.



XAOS mantig'i asosida ta'minlanadigan tabiiy shamol

- ☐ Ventilyator tezligi beradigan iqlimdan farqli bo'lgan tabiiy soffikni his etish uchun ichki ventilyator tezligini tanlash tugmasini bosib, XAOS rejimiga o'rnatish. Bu rejimda, havo oqimi tabiiy yoqimli shabada singari esadi, bunda ventilyator tezligi XAOS mantig'i asosida avtomatik ravishda o'zgarib turadi.

Salomatlik uchun foydali namsizlantirish rejimi




Salomatlik uchun foydali namsizlantirish rejimi ishlayotgan vaqtda

- ❑ Agar ish rejimini tanlash tugmasi orqali namsizlantirish rejimini tanlasangiz, konditsioner namsizlantirish rejimida ishga tushadi. Bunda konditsioner xona havosini aniqlovchi datchik ko'rsatgan harorat asosida namsizlantirish uchun eng maqbul sharoitni ta'minlash uchun xona harorati va havo oqimi hajmini tegishli qiymatga avtomatik tarzda sozlaydi.

Ammo bu holatda, o'rnatilgan harorat displeyda aks etmaydi, shuningdek, siz xona haroratini sozlash imkoniga ham ega bo'lmaysiz.

- ❑ Salomatlik uchun foydali namsizlantirish funksiyasi ishlagan vaqtda xonadagi amaldagi haroratga qarab optimal algoritm asosida havo oqimi hajmi avtomatik tarzda sozlanadi va xonadagi iqlim sharoitini hatto yuqori namlik mavsumida ham salomatlik uchun foydali va yoqimli holatga keltiradi.

Havo Aylanishi Operatsiyasi




Bu funksiya xonani sovitmaydi yoki isitmaydi faqat xona havosini aylantiradi. ISH REJIMINI TANLASH TUGMASINI bosgan holda bu funktsiyani faollashtirishingiz mumkin. Havoni aylantirish funksiyasi ishga tushirilgach, ICHKI VENTILYATOR TEZLIGINI TANLASH TUGMASINI bosgan holda havo oqimi tezligini tanlashingiz mumkin.



ESLATMA

CHAOS Air rejimi quvvat iste'molini tejaydi va haddan ortiq sovitib yuborishiga yo'l qo'ymaydi. Atrofdagi haroratga qarab, ventilyator tezligi yuqoridan pastga yoki aksincha avtomatik ravishda o'zgaradi.

Avtomatik ishlash (faqat sovutuvchi modellarda)




Ushbu ish rejimida amalda o'rnatilgan harorat qiymati va ventilyator tezligi elektron boshqaruv mantiq tizimi orqali xonadagi ayni vaqtdagi haroratga asoslanib avtomatik tarzda o'rnatiladi. Agar siz issiq yoki sovuqni his qilsangiz, yanada sovuqroq yoki issiqroq qilish uchun tegishli haroratni o'rnatish tugmalarini bosib.

NOTE : Ushbu rejimda amaldagi xona harorati va ichki ventilyator tezligini o'rnatish mumkin. Ammo ushbu rejimda xaos jalyuzisidan foydalanishingiz mumkin. Agar tizim istalgandek ishlamayotgan bo'lsa, qo'lida boshqa rejimga o'tkazing.




Rejimni avtomatik o'zgartirish funksiyasi (faqat sovutuvchi modellarda)



Bu funksiya konditsionerning asosan isitish yoki sovutish rejimlarida ishlaydi. Ushbu funksiya ishlagan vaqtda, o'rnatilgan harorat qiymatiga nisbatan $\pm 2^{\circ}\text{C}$ haroratni ta'minlash uchun ushbu funksiya ish rejimini avtomatik tarzda o'zgartiradi.



Tez sovutish/isitish funksiyasi



Jazirama yoz mavsumida xonani tez sovutish uchun tezkor sovutish funksiyasidan foydalanish mumkin. Ushbu funktsiya yoqilganda, konditsioner xonani tez va samarali salqin qilish uchun sovutish rejimida, o'ta yuqori ventilyator tezligida va 18°C harorat sozlamasi qiymatida ishlaydi. Shuningdek, tezkor isitish funksiyasi (faqat ayrim modellarda mavjud) o'ta yuqori ventilyator tezligida va 30°C harorat sozlamasi qiymatida 60 daqiqa ishlab, xonani tezda isitadi.

Ushbu funktsiyani TEZKOR SOVUTISH TUGMASINI bosgan holda ishga tushirishingiz mumkin. Tezkor sovutish rejimidan yuqori ventilyator tezligida sovutish rejimiga o'zgartirish uchun TEZKOR SOVUTISH TUGMASI yoki ICHKI VENTILYATOR TEZLIGINI TANLASH TUGMASI yoki yana XONA HARORATINI O'RNATISH TUGMASINI bosing.



ESLATMA

- Isitish yoki avtomatik rejim almashtirish funksiyasi ishlayotgan vaqtda tezkor sovutish funksiyasini yoqib bo'lmaydi.
- Invertorli, Art Cool va Art Cool Wide (Deluxe bo'lmagan) modellarda, TEZKOR SOVUTISH TUGMASINI bosgan holda tezkor isitish funksiyasidan foydalanish mumkin.
- Art Cool va Art Cool Wide modellari tezkor sovutish/isitish funksiyasi ishlayotgan vaqtda kuchli sovutish yoki isitish uchun yon tomonlardan havo chiqishini yopadi.

Avtomatik tozalash funksiyasi

- ☐ Avtomatik tozalash funksiyasi ishlayotgan vaqtda sovutish yoki salomatlik uchun foydali namsizlantirish rejimida ishlagandan keyin ichki blokda qolgan namnlarni ketkazish mumkin.




- Ushbu funktsiyani yoqish uchun AVTOMATIK TOZALASH TUGMASINI bosing.
- Shunda konditsioner o'chirilganda ham, ichki ventilyator 30 daqiqa ishlab turadi, bu vaqt davomida sovutish yoki namsizlantirish jarayoni bormaydi. Jalyuza ham yopiladi.
- Bu har qanday qoldiq namnlarni quritadi va konditsioner ichini quritadi.
- Agar yana AVTOMATIK TOZALASH TUGMASINI bossangiz, bu funktsiya bekor qilinadi.

ESLATMA

- ☐ Avtomatik tozalash funksiyasi ishlayotgan vaqtda faqat YOQISH/O'CHIRISH TUGMASI, PLAZMA TUGMASI va AVTOMATIK TOZALASH TUGMALARI ishlaydi.

NEO PLAZMA tozalash funksiyasi (ixtiyoriy)



Plazma filtri LG kompaniyasi tomonidan yaratilgan texnologiya bo'lib, u yuqori zaradli elektronlar plazmasini hosil qilgan holda kiruvchi havo tarkibidagi zararli mikroscopik zarrachalarni yo'qotadi. Ushbu plazma iflos zarracha va mikroblarni o'ldirib, yo'qotib, sof va gigiyenik toza havo yetkazib beradi.

Masofa pultidagi PLAZMA TUGMASINI bosgan holda plazma yordamida havoni tozalash funksiyasini ishga tushirish mumkin. Shu tugmani yana qayta bossangiz, bu rejim bekor qilinadi.


ESLATMA

Bu funktsiyadan istalgan ish rejimida foydalanish mumkin va plazma filtri ishlayotgan vaqtda istalgan ventilyator tezligidan foydalanish mumkin.



Energiya tejovchi sovutish rejimi

EEnergiyani tejovchi sovutish rejimi sovutish rejimida va salomatlik uchun foydali namsizlantirish rejimida energiyani tejashi mumkin, chunki vaqt va harorat o'zgarishiga muvofiq korpus moshlashuvi vaqtini o'rnatgan holda va kerakli haroratni avtomatik tarzda sozlagan holda bu rejim samarali ishlashi mumkin.



1. Konditsionerni ishga tushirish uchun YOQISH/O'CHIRISH TUGMASINI bosing.
2. Masofa pulti eshikchasini oching. Sovutish rejimi yoki sog'lik uchun foydali namsizlantirish rejimin tanlang.
3. ENERGIYA TEJOVCHI SOVUTISH REJIMI TUGMASINI bosing.
4. Energiyani tejovchi sovutish rejimini bekor qilish yana ENERGIYANI TEJOVCHI SOVUTISH REJIMI TUGMASINI bosing va shunda konditsioner oldingi rejimda (sovutish yoki salomatlik uchun foydali namsizlantirish rejimida) ishlashda davom etadi.




Display yorqinligi (ixtiyoriy)

Masofa pultidan foydalanib display yorqinligini sozlash mumkin. Masofa pulti eshikchasini oching va LCD YORQINLIGI tugmasini bosing. Display qora tushga o'tadi. Yorqin displeyni o'rnatish uchun yana shu tugmani bosing.



Majburiy ishlatish

Masofadan boshqarish pultidan foydalanib bo'lmaganda, konditsionerni ishlatish tartibi. Yoqish/o'chirish tugmasi bosilganda, shu funksiya ishga tushadi. Bu funksiya ishlashini to'xtatish uchun shu tugmani qayta bosing.



	Sovutish modeli	Issiqlik nasosiga ega bo'lgan model		
		Xona haror. $\geq 24^{\circ}\text{C}$	$21^{\circ}\text{C} \leq$ Xona haror. $< 24^{\circ}\text{C}$	Xona haror. $< 21^{\circ}\text{C}$
Ishlatish rejimi	Sovutish	Sovutish	Sog'lom namsizlantirish	Isitish
Ichki blok VENTILYATORI tezligi	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Haroratni o'rnatish	22°C	22°C	23°C	24°C

Sinov rejimda ishlatish

SINOV REJIMDA ISHLATISH vaqtida konditsioner xona harorati qanday bo'lishidan qat'iy nazar sovutish rejimida, yuqori ventilyator tezligida ishlaydi va 18 daqiqadan so'ng dastlabki sozlamalar holatiga qaytadi. Sinov rejimda ishlatish vaqtida, agar masofa pulti signali qabul qilinsa, konditsioner masofa pulti bergan buyruq asosida ishlaydi. Agar ushbu rejimdan foydalanmoqchi bo'lsangiz, yoyish/o'chirish tugmasini 3~5 soniya bosib turing, so'ng, 1 marta tovushli signal chalinadi. Bu funksiya ishlashini to'xtatish uchun shu tugmani qayta bosing.

Joriy vaqtni o'rnatish

1. 3 soniya mobaynida TAYMER tugmasini bosing.



2. Kerakli vaqt o'rnatilgunigacha VAQTNI O'RNATISH TUGMALARINI bosing.



3. O'RNATISH / BEKOR QILISH TUGMASINI bosing.



ESLATMA

Indikatoridagi a.m.(tushgacha) va p.m. (tushdan so'ng) ni tekshiring.

Taymerini sozlash

1. Taymerni yoqish yoki o'chirish uchun TAYMER tugmasini bosing.



2. Kerakli vaqt o'rnatilgunigacha VAQTNI O'RNATISH TUGMALARINI bosing.



3. O'RNATISH / BEKOR QILISH TUGMASINI bosing.



ESLATMA

2 ish rejimlaridan birini tanlang:



Taymerni yoqish




Taymerni o'chirish

Taymer sozlamasini bekor qilish

• Agar siz barcha taymer qiymatlarini bekor qilmoqchi bo'lsangiz, BARCHASINI TOZALASH TUGMASINI bosing.



• Agar siz har bir taymer qiymatlarini bekor qilmoqchi bo'lsangiz, o'zingiz uchun kerakli taymer uyqu rejimini yoqish yoki o'chirishga sozlash uchun TAYMER TUGMASINI bosing. Va keyin masofadan boshqarish pultini signal qabul qiluvchi datchikka to'g'rilagan holda O'rnatish/bekor qilish tugmasini bosing. (Konditsionerdagi taymer chirog'i yonib, display o'chadi.)



Uyqu rejimi

Konditsionerning avtomatik tarzda to'xtash vaqtini o'rnatish uchun UYQU REJIMI AVTO TUGMASINI bosing. UYQU REJIMI AVTO TUGMASINI 1 martadan 7 martagacha bosganingizda, taymer vaqti har gal tugma bosilganda bir soatlik ortib borish bilan dasturlanadi. 1 soatdan 7 soatgacha bo'lgan vaqt birligida uyqu rejimini o'rnatish mumkin.



ESLATMA

- Uxlash uchun qulay iqlimni ta'minlash uchun uyqu rejimi sovutush rejimida ichki ventilyatorni past tezlikda, isitish rejimida esa o'rta tezlikda ishlatadi.
- Art Cool va Art Cool Wide (Deluxe bo'lmagan) modellar uxlash maroqli bo'lishi uchun uyqu rejimida quyi havo chiqishi ni qisman yopadi.

Sovutish rejimi yoki sog'lik uchun foydali namsizlantirish rejimida:

Uxlash uchun qulay iqlim sharoitini ta'minlash uchun o'rnatilgan harorat qiymati keyingi 30 daqiqada avtomatik tarzda 1°C ga oshiriladi (1 soatda 2°C ga). Uyqu rejimi amalda bo'lganda mazkur harorat yakuniy o'rnatilgan harorat bo'lib qoladi.

Vertikal / gorizontal havo oqimi yo'nalishini boshqarish (ixtiyoriy)

Masofa pulti yordamida tepaga/pastga (vertikal havo oqimi) yo'nalgan havo oqimiga sozlash mumkin.

1. Konditsionerni ishga tushirish uchun YOQISH/O'CHIRISH TUGMASINI bosing.


2. XAOS JALYUZASI TUGMASINI bosing



3. Jalyuzalar tepaga va pastga avtomatik tarzda chayqaladi.



4. Jalyuzani kerakli burchakda to'xtatish uchun yana shu tugmani bosing.




Chapga/o'nga (gorizontal) havo oqimi yo'nalishini masofadan boshqarish pultidan foydalangan holda o'zgartirish mumkin.

1. Konditsionerni ishga tushirish uchun YOQISH/O'CHIRISH TUGMASINI bosing.




2. GORIZONTAL HAVO OQIMI YO'NALISHI TUGMASINI bosing



3. Jalyuzalar chapga va o'nga avtomatik tarzda chayqaladi.

4. Jalyuzani kerakli burchakda to'xtatish uchun yana shu tugmani bosing.



ESLATMA

- XAOS JALYUZASI TUGMASINI bosganda, gorizontal havo oqimi yo'nalishi xaos algoritmi asosida avtomatik tarzda o'zgaradi, bu orqali xonada havo bir xilda taqsimlanadi va shu bilan birga, bu vaqtda tanangiz tabiiy shabada esayotgandek yoqimli iqlimni his etadi.
- Vertikal havo oqimi yo'nalishi jalyuzasi holatini qo'l kuchi bilan o'zgartirish uning mexanizmiga shikast yetkazishi mumkin. Konditsioner o'chirilganda, tepaga/pastga havo oqimi yo'nalishi jalyuzasi konditsioner havo chiqish teshigini yopadi.
- Uyqu rejimi vaqtida xaos jalyuzasi to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi

Bu funksiya elektr ta'minoti uzilishlari sodir bo'lgan hollarda juda qo'l keladi.

Elektr ta'minoti uzilishidan so'ng elektr yana kelganda, ushbu funksiya konditsionerning oldingi ishlash holatini qayta tiklaydi va u o'sha parametrlar bo'yicha ishlashni davom ettiradi.

ESLATMA

Bu funksiya zavodda sozlangan parametrlar bo'yicha yoqilgan bo'ladi, ammo yoqish/o'chirish tugmasini 6 soniya bosib turib ushbu funktsiyani o'chirib qo'yishingiz mumkin. Jihoz ikki marta signal chaladi va indikator chirog'i(2) 4 marta yonib o'chadi.

Uni yoqish uchun shu tugmani 6 soniya bosib turing. Jihoz ikki marta signal chaladi va indikator chirog'i(1) 4 marta yonib o'chadi.



Texnik xizmat ko'rsatish va qarov

⚠️DIQQAT

Har qanday texnik xizmat ko'rsatishni bajarishdan avval tizimni elektr tarmog'idan uzing, zanjir uzgichni uzing va elektr ta'minotiga ulash kabelini rozetkadan uzing.

Ichki blok

Qurilmani yumshoq toza latta bilan tozalang. Oqartiruvchilar yoki abrazivlardan foydalanmang.

⚠️DIQQAT



Quyidagilardan hech biridan foydalanmang

- Harorati 40°C dan balandroq bo'lgan suv. Bu deformatsiyalanish va ranglarning o'chishiga olib kelishi mumkin.
- Uchuvchan moddalar. Ular havo konditsioneri yuzasini shikastlashi mumkin.




Havo filtrlari

Old panel /panjara orqasidagi havo filtrlarini har 2 haftada bir marta yoki zarur bo'lgan hollarda bundan ko'proq tekshirib va tozalab turish lozim. Filtrlarni chiqarib olish uchun har bir model turiga mos bo'lgan o'z-o'zini tushintiruvchi diagrammalarga qarang. Filtrlarni changyutgich yoki iliq sovunli suv bilan tozalang. Agar kirlarni osongina ketkazib bo'lmasa, yuvish vositasining eritmasi bilan iliq suvda yuving. Yuvgandan keyin salqin joyda yaxshilab quritib va filtrlarni qayta o'z joyiga o'rnatib.



Plazmali filtrlar

Havo filtri orqasidagi plazmali filtrlarni har 3 oyda bir marta yoki zarur bo'lgan hollarda bundan ko'proq tekshirib va tozalab turish lozim. Filtrlarni chiqarib olish uchun har bir model turiga mos bo'lgan o'z-o'zini tushintiruvchi diagrammalarga qarang. Filtrlarni changyutgich bilan tozalang. Agar u kir bo'lsa, uni suv bilan yuving va salqin joylarda quritib va joyiga qaytarib o'rnatib.






Dezodorant filtrlar

Havo filtri orqasidagi dezodorant filtrlarni oling va ularni 2 soat davomida to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ostida qoldiring. Va keyin ushbu filtrlarni o'z joylariga joylashtiring.


Filtrlarni yechib olish

1. Standart split tip : quyida ko'rsatilganidek, konditsioner turiga qarab, old panelni ikki usulda ochish mumkin

1-usul: old panelni, quyida ko'rsatilganidek, oching. So'ng, filtni olish uchun filtr qopqoq devorini sekin tepaga ko'taring. Havo filtrini joyidan olgach, plazma filtri va dezodorator filtrini sekin oldinga o'zingizga tortib chiqaring.



2-usul: Old panelni, quyida ko'rsatilganidek, torting. So'ng, filtrni olish uchun filtr qopqoq devorini sekin tortib tushiring. Havo filtrini joyidan olgach, plazma filtr va uchtalik dezodorator filtrini sekin oldinga o'zingizga tortib chiqaring.




⚠ DIQQAT

Havo kirish panjarasini ochgandan so'ng, 10 soniya davomida ushbu plazma filtrga tegmang, aks holda, elektr toki urishi mumkin.


2. Art Cool (tip 1) :

Filtr qo'yilmasini biroz ko'tarib, panjarani pastki qismidan torting va sekin filtrni chiqarib oling. Plazma filtrni rasmda ko'rsatilganidek chiqarib oling. Yuviq tozalab va quritib bo'lgach, ilgakka moslagan holda filtr va panjarani qaytib joyiga o'rnatish.



3. Art Cool (tip2) :

Old panel yuqori qismini torting va ko'taring. Old panelni ushlab turgan holda filtrni chiqarib oling. PUSH tugmasini bosgan holda plazma filtrni chiqarib oling. Tozalab yuvib bo'lgach, soyada quriting. So'ng, plazma va oddiy filtrni tartib bilan joyiga o'rnatish. Old panel ilgagini ilmoqqa ilib, old panelni yoping.



4. Art cool turiga mansub enli :


Filtrlarni yechib olish tartibi yuqorida bayon qilingan Art Cool tip 1 modellariniki bilan bir xil.

⚠ DIQQAT

Havo kirish panjarasini ochgandan keyin 10 soniya davomida PLAZMA filtriga tegmang, bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

5. Deluxe (tip 1):

Rasmida ko'rsatilganidek, panel tepa qismini oching va ko'taring. Panel ilgaklari bo'shaydi. Havо filtrlarini chiqarib oling. So'ng, plazma filtrni chiqarib oling.




Yuvib tozlab va quritib bo'lgach, filtrlarni qaytib joyiga o'rnatish.

6. Deluxe (tip 2):


Rasmida ko'rsatilganidek, old panelni oching.

Havo filtrlari yechib olish uchun filtr qo'yilmasini biroz torting.


Havo filtrlari olgach, oldinga tortgan holda plazma va dezodorator filtrlari chiqarib oling

**Old paneldan foydalanish****1. Old panelni yopish**

Sharnirni oldinga surib, old panelni yoping.


**2. Old panelni olish**

Sharnirni tepaga ko'tarib, ilgakka iling va old panelni oldinga rotib oling.




Rasm va fotosuratni almashtirish (Art Cool tip 2)


1. Elektr ta'minotini o'chiring va keyin old panelning yuqori qismini oching.




2. Old panelning quyi qismidagi ikkala ulagichlarni quyidagi rasmda ko'rsatilgani kabi torting.




3. Old panel yuqori qismini bosing va old panelni yoping va keyin old panel quyi qismini u mahkamlangunicha oldinga torting.




4. Rasmlarni chiqarib olish




5. TRasmi teskarisiga aylantiring va gilamcha ustida aylantiring, keyin taglikka biriktirilgan himoya plyonkasini olib tashlang.




6. Rasm/fotosuratni mavjud rasm va taglik o'rtasiga joylashtiring. (Fotosurat/rasming tavsiya qilingan o'lchami: 450mm x 450mm)




7. Taglikni qoplang va qo'l(lar)ingiz bilan mahkam yopishgunicha bosing.



8. Talab qilingan fotosurat/chizmani har ikkala ilmoq qismlari ostida sirpantiring va ularni mahkamlang. Uni yopish uchun old panelni yengil bosing.




9. Panelning quyi qismidagi har ikkala ulovchilarni ichkariga bosing va panelni mahkamlang. Keyin yoqing.



※ Taglikdan foydalanilmagan hollarda fotosurat/rasming tavsiya qilingan o'lchami:
522mm x 522mm

Filtr va rasm almashtirilgandan keyin qurilma y oqilganda old panel xalaqit bermaydi.



Tashqi blok

Tashqi blokning issiqlik almashish g'altagi va panel ventilyatorlari muntazam ravishda tekshirib turilishi lozim. Agar kirlar yoki qurum bilan to'lib qolgan bo'lsa, issiqlik almashtirgich va panel ventilyatorlarini maxsus tarzda bug' bilan tozalanishi mumkin.

ESLATMA

Kirlangan yoki tiqilgan tizimning ishlash samaradorligini pasaytiradi va ko'proq ishlatish harajatlarga olib keladi.

Ishlatish bo'yicha maslahatlar!

Xonani haddan tashqari sovutib yubormang!

Bu salomatlikka zarar va elektr quvvatini isrof qiladi.

Jalyuza yoki pardalarni yopilgan holda saqlang.

Havo konditsioneri ishlayotgan vaqtda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlarining xona ichiga kirishiga yo'l qo'ymang.

Xona haroratini bir xilda saqlang.

Xona haroratining bir xilda bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun vertikal va gorizontal havo oqimi yo'nalishini sozlang.

Eshiklar va oynalarning mahkam yopilganligiga ishonch hosil qiling.

Sovuq havoning xonadan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun eshiklar va oynalarni iloji boricha kamroq oching.

Havo filtrini muntazam ravishda tozalab turing.

Havo filtrini to'lib qolishi havo oqimini kamaytiradi va sovutish va quritish samaradorligini pasaytiradi. Har ikki haftada kamida bir marta tozalab turing.

Vaqti-vaqti bilan xonani shamollatib turing.

Derazalar doim yopilgan holda saqlanishini hisobga olsak, ularni har zamonda ochish va xonani shamollatib turish maqsadga muvofiq.

Samarali va tez sovutish uchun ventilyatorning yuqori tezligidan foydalaning.

Ventilyator tezligi baland bo'lganda qurilma o'zining baholangan sovutish qobiliyatini ishlatadi.

O'z-o'zini diagnostika qilish funksiyasi

Konditsionerda undagi nosozliklarni aniqlash funksiyasi mavjud. Konditsioner termistori ishlamay qolsa, svetodiodli indikator miltillaydi. Shunday holat sodir bo'lsa, xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis/dilerga murojat qiling ①

Xatolikni ko'rsatuvchi svetodiod indikator ①	Tekshiring
	- Ichki blok xona harorati termistori uzilgan/qisqa tutashuv ro'y bergan. - Ichki blok quvur harorati termistori uzilgan/qisqa tutashuv ro'y bergan.

Nosozliklarni bartaraf qilish bo'yicha maslahatlar! Vaqtingiz va mablag'laringizni tejang!

Quyidagi hollarda havo konditsioneri to'g'ri ishlamayotgan bo'lishi mumkin:

Muammo	Mumkin bo'lgan sabablar	Nima qilish kerak
Havo konditsioneri ishga tushmayapti	■ Havo konditsioneri o'chirib qo'yilgan.	• Havo konditsioneri vilkasining devordagi rozetkaga to'liq suqilganligiga ishonch hosil qiling.
	■ Saqlagich erib ketgan/zanjir uzgich ishga tushgan.	• Uydagi saqlagich/zanjir uzgich qutisini tekshiring va saqlagichni almashtiring yoki zanjir uzgichni qaytadan o'rnatng.
	■ Elektr ta'minoti xatoligi.	• Elektr ta'minotida uzilishlar sodir bo'lgan hollarda rejimni boshqarishni O'CHIRISH-ga o'rnatng. Elektr ta'minoti qayta tiklanganda kompressor ortiqcha yuklanishining ishga tushishining oldini olish uchun havo konditsionerini qayta ishga tushirishdan avval 3 daqiqa kuting.
	■ Yuqori kuchlanish.	• Agar kuchlanish haddan tashqari baland yoki past bo'lsa, zanjir uzgich ishga tushadi.
Konditsioner kutilganidek sovutmayapti	■ Havo oqimi cheklangan.	• Havo konditsionerining oldini to'sib turgan pardalar, jalyuzalar yoki mebellarning yo'qligiga ishonch hosil qiling.
	■ Havo filtri kirlangan.	• Filtni har 2 haftada kamida bir marta tozalab turing. Tezlik xizmat ko'rsatish va qarov bo'limiga qarang.
	■ Xona issiq bo'lishi mumkin.	• Havo konditsioneri ilk marta yoqilganda xona sovushi uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi.
	■ Sovuq havo chiqib ketayapti.	• Pechning poldagi ochiq registrlari va sovuq havo qaytargichlarini tekshiring.
	■ Harorat o'rnatilishini tekshiring.	• Ularning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiling.
	■ Xonada birorta issiqlik manbai bo'lishi mumkin.	• Havo konditsioneridan foydalanish vaqtida shunday manbani tekshiring va olib tashlang yoki uni o'chirib qo'ying.

Quyidagi holatlarda darhol xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling

1. Kuygan hid, baland ovozli shovqin kabi g'alati narsalar sodir bo'lishi mumkin. Qurilmani to'xtating va zanjir uzgichni o'chiring. Bunday hollarda o'zingizcha ta'mirlashga yoki tizimni qaytadan ishga tushirishga urinmang.
2. Elektr tarmog'iga ulash kabeli juda issiq yoki shikastlangan.
3. O'z-o'zini tashxislash tomonidan xatolik kodi hosil qilinadi.
4. Garchi namlik darajasi past bo'lsa ham ichki blokdan suv oqib chiqayapti.
5. Iсталgan o'chirg'ich, zanjir uzgich (xavfsizlik, yerga ulash) yoki saqlagich to'g'ri ishlamaydi.

Qurilmaning yaxshi ishlamasligining oldini olish uchun foydalanuvchi rejali tekshirishni va tozalashni amalga oshirishi kerak. Maxsus holat sodir bo'lganda ishlar faqat xizmat ko'rsatuvchi texnik xodimlar tomonidan bajarilishi kerak.

